



BADIIY PSIXOLOGIZM TAHLILIDA PSIXOANALIZ METODINING AHAMIYATI

Axmedova Aziza Komilovna

f.f.f.d, Ph.D.

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti

Toshkent, O'zbekiston

aziza.ahmed@inbox.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13789613>

Annotatsiya


Maqola psixoanaliz metodining kelib chiqishi, badiiy psixologizmni o'rganishdagi ahamiyatini yoritadi. Bunda Zigmund Freyd nazariyalarining san'atga, xususan, sana'tkor shaxsini o'rganishda qanday rol o'ynaganligi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: psixoanaliz metodi, psixologizm, san'at, ijodkor, badiy obraz

Psixologizm adabiyotshunoslik va psixologiya kesishadigan mavzulardan biridir. Badiiy psixologizm so'z san'atida ruhiyat tadqiqi va tasviridan iboratdir. Ya'ni bunda ijodkorning ham ruhshunoslik tajridasi ham ana shu tajribadan orttirilgan bilimlarni asarga jo qilish mahorati o'rganiladi. Bunda psixoanaliz metodi alohida diqqatga sazovor.

O'tgan asr boshlarida Z.Freyd ta'limoti ta'sirida **psixoanalitik** tadqiq metodi adabiyotshunoslikka kirib keldi. Psixoanalitik tahlilda badiiy asar "ongsizlik (bessoznatel'noe) psixologiyasi bilan birgalikda talqin etiladi" [1., b.181]. Z. Freyd, K. Yung, E.Bern, J.Lakan, E.Fromm kabi olimlarning qarashlari badiiy tahlilda faol qo'llaniladi. Psixoanalizni filolog olim V.Belyanin qo'yidagicha izohlaydi: "..badiiy adabiyot va san'at asarlari talqinida *subjektiv* yondashuv turi bo'lib, badiiy matn elementlari va ijodkor shaxsi psixikasi o'rtasida korrelyatsiya mavjudligiga asoslanadi. Shundan kelib chiqib, badiiy matn — ijodkor ongosti borlig'ining verbal ro'yobga chiqishidir " [2,b.37]. Demak, badiiy asarda muallif o'zi anglamagan, ehtimol tasvirlashni niyat qilmagan holatlarning ham aksi borki, ularni psixoanalitik tahlil yuzaga chiqaradi. Psixoanalitik tahlilda freydizm quyidagi hodisalarga e'tibor qaratadi:

- Psixikaning "Id", "Ego" va "Super Ego" kabi uch komponenti tahliliga;
- "anglanmaganlik/ongsizlik" hodisasiga;
- Shaxs jinsiy rivojlanishining turli bosqichlari ta'snifiga;
- Nevroz turlarining kelib chiqishiga;
- Tushlar talqiniga.






- Xavotir turlari va undan himoyalanişning mexanizmlari (“siqib chiqarish, proyeksiya, almashtirish, ratsionalizatsiya, regressiya, sublimatsiya”[3.] va boshqalar)

Badiiy asarlarning barini psixologik tahlil qilish imkoniyati mavjudligini ishonch bilan aytish mumkin, ammo, psixoanalitik tahlil qoʻllanilishi uchun koʻrinib turibdiki, asarda muayyan hodisalar, tahlilga izn beradigan vaziyatlar boʻlishi talab etiladi. Garchi psixoanaliz sanʼatga xos qonuniyatlarni anglashda salmoqli hissa qoʻshgan boʻlsada, panseksualizmga aydlanishi ham asossiz emas, bu haqda L.S. Vigotskiy oʻrinli fikr bildirgan “Jinsiy hissiyotning roli individual psixologiyadan ijtimoiy psixologiya doirasiga oʻtkazilganda, ayniqsa, oʻta oshirib yuboriladi....Haykaltarosh birorta oʻgil bolaning qomatini yaratayotgan boʻlsa yoki shoir oʻsmirlardagi qaynoq doʻstlikni kuylasa, psixoanalitik shu ondayoq bunda eng keskin shakldagi gomoseksualizmni koʻrishga tayyor turadi...Bunday analitiklarning asarlarini oʻqiganingda barcha ruhoniylar hayot faqatgina noinsoniy dahshatli mayllardan iborat ekanday taassurot uygʻotadi” [3., b.107].

Sanʼat asarini muallif ruhiyatiga bogʻlab oʻrganish Zigmund Freydning psixoanaliz boʻyicha qarashlariga borib taqaladi. Freyd sanʼat asariga ijodkordagi nevrozning sublimatsiyasi sifatida qaragan. Umuman olganda qator, psixoanalitiklarning sanʼatga patalogik hodisa deb yondoshganliklari sabab ehtimol sanʼatshunoslar, adabiyotshunoslar orasida ushbu nazariya keng qoʻllab quvvatlanmagan. Sublimatsiya nazariyasi 1950-yillargacha psixoanalizda hukmron boʻldi, biroq “ego psixologiyasi kashf etilishi bilan nevroitik sanʼatkor gʻoyalari psixoanalizda barham topdi”, deb yozadi Jon Frederickson maqolasida, “..shunday qilib sanʼat asari kasallikning emas, balki, kuchli, sogʻlom egoning mahsuli sifatida koʻriladigan boʻldi [4.]. Frederickson xulosa qilishicha, sanʼatning mifologik sinoat emas, kreativlik sifatida qabul qilinayotganligi uning demokratizatsiyasidan dalolat beradi. Va bunda psixoanaliz muhim rol oʻynagan, deb hisoblaydi olim.

Zamonaviy adabiyotshunoslikda Freydning ruhiy jarohatlar, travmatik nevroz haqidagi gʻoyalari yangi badiiy talqin yoʻnalishiga asos soldi. Bunda ruhiy jarohatning insonning xotirasiga, olamni qabul qilishiga, oʻtmishni talqin qilishiga, oʻzini identifikatsiya qilishiga taʼsiri lingvistik ifodani tahlil qilish orqali oʻrganiladi. “Trauma Studies” deb nomlangan badiiy talqin yoʻnalishi 1990-yillarda Cathy Caruth, Shoshana Felman, Geoffrey Hartman ishlari orqali ommalashgan. Mazkur talqin uchun psixik jarohat va uning lisoniy ifodasi, xotiraga taʼsiri, anglanmaganlik bilan aloqasi kabi masalalar markaziy ahamiyatga ega. Trauma Studies psixoanalitiklari asosan Freydning “Studies on





Histeriya” (1895, “Isteriyaning kelib chiqishi”), “1920, “Beyond the Pleasure Principle” kabi asarlaridagi g’oyalarga tayanadilar. Individual va jamoaviy ruhiy jarohat turlari farqlanadi. Xususan, jamoaviy ruhiy jarohat bo’yicha qilingan ilmiy-badiiy tahlillar xalqlar tarixidagi repressiya, quldorlik, mustamlaka siyosati, rasizm va boshqa turdagi zulmkorliklarning, ijtimoiy bo’hronlarning tarixiy xotiraga, o’z-o’zini anglashga ta’sirini hamda lisoniy ifodasini o’rganishi bilan ahamiyatli. “The Future of Trauma Studies: Contemporary Literary and Cultural Criticism” [5.] nomli to’plamda yo’nalishning istiqbollari mufassal yoritilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Каримов Б. Руҳият алифбоси. Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйиб, 2018. – 364 б.
2. Белянин В. Введение в психиатрическое литературоведение. Verlag Otto Sagner, München. 1996. – 284 с.
3. Фрейд З. Психоанализ ҳақида бешта маъруза. Тарж.Х.Алимов. – Тошкент, “Muharrir nashriyoti”, 2019.– 140б.–Б.33.
4. Frederickson, J. (1987). The Artistic Personality in Psychoanalytic Theory. American Imago, 44(3/4), 257–273. <http://www.jstor.org/stable/26304648>
5. Buelens G., Durrent S., Eaglestone R. The Future of Trauma Studies: Contemporary Literary and Cultural Criticism. London: Routledge. 2014. –181 p.

